e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/epw96w53

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TYUTOR FAOLIYATINING PEDAGOGIK MAZMUNI VA TALABALAR SHAXSIY-KASBIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Soliyeva Maftuna Tirkash qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi (PhD).
e-mail: soliyevamaftuna@mail.ru **ORCID:** https://orcid.org/0009-0000-1146-276X

Annotatsiya.
Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tyutor faoliyatining pedagogik mazmuni hamda uning talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda tyutorlik faoliyati talabalarning akademik qo'llab-quvvatlanishi, individual maslahat olishi, tarbiyaviy faoliyatga jalb etilishi, ijtimoiy-psixologik moslashuvi, kasbiy yo'naltirilishi, motivatsion qo'llab-quvvatlanishi hamda monitoring va refleksiv faoliyati bilan bog'liq kompleks pedagogik tizim sifatida baholangan. Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universitetida faoliyat yuritayotgan 21 nafar tyutor misolida olib borilib, pedagogik diagnostikaga asoslangan strukturaviy-funksional tahlil metodidan foydalanilgan. Natijalar tyutorlik faoliyatini maqsadli pedagogik asosda tashkil etish individual maslahat berish, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, akademik qo'llab-quvvatlanishi va kasbiy yo'naltirilishi samaradorligini oshirishini ko'rsatgan. Olingan natijalar asosida tyutor faoliyatini tashkiliy-nazorat modelidan pedagogik hamrohlik va individual rivojlantirish modeliga yo'naltirish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: tyutor, tyutorlik faoliyati, oliy ta'lim, pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual maslahat, shaxsiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish, akademik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-psixologik moslashuv, pedagogik diagnostika.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЬЮТОРА В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ЛИЧНОСТНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ

Солиева Мафтуна Тиркаш кизи
Джизакский государственный педагогический университети, преподаватель (PhD).

Аннотация.
В статье проанализированы педагогическое содержание деятельности тьютора в высших образовательных учреждениях и её значение для личностного и профессионального развития студентов. Тьюторская деятельность рассматривается как комплексная педагогическая система, включающая академическую поддержку студентов, индивидуальное консультирование, вовлечение в воспитательную деятельность, социально-психологическую адаптацию, профессиональную ориентацию, мотивационную поддержку, а также мониторинг и рефлексивную деятельность. Исследование проведено на примере 21 тьютора, работающего в Джизакском государственном педагогическом университете, с использованием метода структурно-функционального анализа, основанного на педагогической диагностике. Результаты показали, что организация тьюторской деятельности на целенаправленной педагогической основе способствует повышению эффективности индивидуального консультирования, социально-психологической адаптации студентов, их академической поддержки и профессиональной ориентации. На основе полученных результатов обоснована необходимость перехода от организационно-контрольной модели деятельности тьютора к модели педагогического сопровождения и индивидуального развития студентов.

Ключевые слова: тьютор, тьюторская деятельность, высшее образование, педагогическая поддержка, индивидуальное консультирование, личностное развитие, профессиональное развитие, академическая поддержка, социально-психологическая адаптация, педагогическая диагностика.

THE PEDAGOGICAL CONTENT OF TUTORING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND ITS SIGNIFICANCE FOR STUDENTS' PERSONAL AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Soliyeva Maftuna Tirkash qizi
Jizzakh State Pedagogical University,Lecturer (PhD).

Abstract.
This article analyzes the pedagogical content of tutoring in higher education institutions and its significance for students' personal and professional development. Tutoring is considered a comprehensive pedagogical system encompassing academic

support, individual counseling, involvement in educational and developmental activities, socio-psychological adaptation, career guidance, motivational support, monitoring, and reflective activities. The study was conducted with 21 tutors working at Jizzakh State Pedagogical University and employed a structural-functional analysis based on pedagogical diagnostics. The results showed that organizing tutoring on a purposeful pedagogical basis enhances the effectiveness of individual counseling, students' socio-psychological adaptation, academic support, and career guidance. Based on the findings, the necessity of shifting tutoring from an organizational and supervisory model toward a model of pedagogical support and individualized development is substantiated.

Keywords: tutor, tutoring, higher education, pedagogical support, individual counseling, personal development, professional development, academic support, socio-psychological adaptation, pedagogical diagnostics.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabaning nafaqat akademik bilimlarni egallashi, balki uning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy jihatdan har tomonlama rivojlanishi ham ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayonining markaziga talaba shaxsini qo'yish, uning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlari hamda kasbiy maqsadlarini hisobga olgan holda pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tyutorlik instituti talabalarning ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, ularning mustaqil rivojlanishiga ko'maklashish hamda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tyutor faoliyati mazmunan faqatgina tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish yoki talabalar davomatini nazorat qilish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, tyutor talabaning ta'lim jarayoniga moslashuvi, uning shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarish, kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik hamroh sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan tyutorlik faoliyati maslahat berish, motivatsion qo'llab-quvvatlash, pedagogik diagnostika, monitoring, refleksiya va individual rivojlanish strategiyalarini belgilash kabi bir qator o'zaro bog'liq funksiyalarni qamrab oladi.

Oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim muhiti talabalardan yuqori darajadagi mustaqillik, mas'uliyat, ijtimoiy faollik va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishni talab etadi. Biroq barcha talabalar ham yangi akademik muhitga bir xil darajada tez moslasha olmaydi. Ayrim hollarda talabalarda kasbiy maqsadning aniq shakllanmaganligi, mustaqil ta'limni tashkil eta olmaslik, vaqtni samarali boshqarishdagi qiyinchiliklar, motivatsiyaning pasayishi yoki ijtimoiy-psixologik moslashuv bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda tyutorning pedagogik yordami talabaning mavjud muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash hamda ta'lim jarayonidagi faol pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tyutorning samarali faoliyati talabaning shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda, uning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, tyutor talabaning o'z kasbiy yo'nalishini anglashiga, o'quv va amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishiga, kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishiga va individual rivojlanish maqsadlarini belgilashiga ko'maklashadi. Shu asosda talabalarda mas'uliyat, tashabbuskorlik, kommunikativlik, hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish hamda o'z faoliyatini tanqidiy baholash kabi muhim shaxsiy-kasbiy sifatlar rivojlanadi.

Tyutorlik faoliyatining pedagogik mohiyatini to'g'ri anglash uning ta'lim tizimidagi funksiyalarini aniq belgilash bilan chambarchas bog'liq. Tyutor bir tomondan, talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi kommunikativ ko'prik vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, talabaning individual rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik yordamni amalga oshiradi. U talabaning ehtiyojlari va muammolarini muntazam o'rganadi, ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarur hollarda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu esa tyutor faoliyatining ko'p funksiyali va kompleks pedagogik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarga individual yondashuvni kuchaytirish, ularning shaxsiy tashabbusi va kasbiy faolligini rivojlantirish, akademik muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish zarurati tyutorlik faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, tyutorning talaba shaxsiga ta'sir etuvchi pedagogik funksiyalarini aniqlash, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini baholash hamda samarali faoliyat mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Shu bois mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tyutor faoliyatining pedagogik mazmunini yoritish, uning asosiy funksiyalari va faoliyat yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, tyutorlik faoliyatining talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sirini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatining pedagogik mazmuni so'nggi yillarda talabalarni akademik, shaxsiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mazkur faoliyat personal tutoring, personal academic tutoring, academic advising, student support hamda ayrim tadqiqotlarda coaching-based tutoring tushunchalari orqali ifodalanadi. Ushbu yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, tyutor talabaning faqat o'zlashtirish natijalarini nazorat qiluvchi shaxs emas, balki uning universitet muhitiga moslashishi, mustaqil faoliyat yuritishi, individual maqsadlarini belgilashi va kasbiy rivojlanishini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida qaraladi [1].

A. T. Yale tomonidan olib borilgan tadqiqotda oliy ta'limdagi shaxsiy tyutor va talaba o'rtasidagi

munosabatlarning mazmuni talabalarning real tajribasi asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talaba bilan tyutor o'rtasida shakllangan ijobiy va ishonchli munosabat birinchi kursda yuzaga keladigan moslashuv muammolarini yengillashtirishga, talabada oliy ta'lim muassasasiga mansublik hissini shakllantirishga hamda uning mustaqillik darajasini oshirishga xizmat qiladi [1]. Muallif tyutorlik samaradorligi faqat uchrashuvlar soniga emas, balki tyutor-talaba munosabatining sifati, ochiqligi va samimiyligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu holat tyutorlik faoliyatining pedagogik mazmunida shaxslararo munosabatlar alohida o'rin tutishini ko'rsatadi.

A. T. Yale'ning keyingi tadqiqotida ham aynan tyutor-talaba munosabatining sifati markaziy masala sifatida tahlil qilingan. Muallif birinchi uchrashuv, talabaning tyutor haqidagi dastlabki tasavvuri, o'zaro ishonch hamda muloqot sifati keyingi pedagogik hamkorlikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [2]. Tadqiqot natijalari tyutorlikni formal maslahat jarayoni sifatida emas, balki talabaning akademik tajribasi va universitetdagi umumiy holatiga ta'sir qiladigan davomiy pedagogik munosabat sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, talabadan mustaqillikni talab qilish va unga zarur pedagogik yordam ko'rsatish o'rtasidagi muvozanat tyutor faoliyatining muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

E. Wakelin tomonidan Nottingham Trent University tajribasi asosida amalga oshirilgan tadqiqot tyutorlik faoliyatining tashkiliy-pedagogik tomonlarini yoritishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotda personal tyutor talabalarga akademik va shaxsiy yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, ularga murabbiy va yo'naltiruvchi sifatida xizmat qilishi lozimligi ta'kidlanadi [3]. Muallif tyutorlik amaliyotida uchraydigan asosiy muammolar sifatida tyutor vazifalarining yetarli darajada aniq belgilanmaganligi, tyutor-talaba uchrashuvlarining maqsadi bo'yicha tushunmovchiliklar va ayrim pedagoglarning mazkur faoliyatni amalga oshirishga nisbatan ishonchi pastligini aniqlagan. Shu sababli tyutorlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning funksional vazifalarini aniq belgilash va maxsus metodik resurslar bilan ta'minlash tavsiya etilgan [3].

Tyutorning talabani rivojlantirishdagi funksiyasini coaching yondashuvi asosida o'rgangan S. Seraj va R. Leggett tyutorlikning an'anaviy maslahat berish modelidan rivojlantiruvchi modelga o'tishi zarurligini ko'rsatadi [4]. Tadqiqotchilar tyutorning talaba muammosini bevosita hal qilib berishidan ko'ra, talabaga vaziyatni mustaqil tahlil qilish, maqsad qo'yish, imkoniyatlarini baholash va tegishli yechimlarni tanlashga ko'maklashishi samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. Coaching asosidagi tyutorlik talabalarda o'ziga ishonch, mustaqillik va murakkab vaziyatlarga moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish imkonini bergan [4]. Mazkur natijalar tyutorlik faoliyatining talabaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Talabalarning oliy ta'limda qolishi va o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishida individual akademik maslahatning ta'siri M. M. Tippetts va hammualliflar tomonidan ham o'rganilgan. Ularning tadqiqotida akademik maslahatchi bilan kamida bir marta uchrashgan talabalar o'qishni keyingi davrda davom ettirish ehtimoli jihatidan maslahatchiga murojaat qilmagan talabalarga nisbatan ustun natija ko'rsatgani aniqlangan [5]. Mualliflar akademik maslahatni talabaning faqat fan tanlashi yoki ro'yxatdan o'tishi bilan bog'liq texnik jarayon deb emas, balki talabalarni oliy ta'lim tizimida saqlab qolish va ularning akademik muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida talqin qiladi. Bu xulosalar tyutorning muntazam monitoring va individual pedagogik maslahat funksiyasining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

E. A. McIntosh, L. Thomas, W. G. Troxel, O. van den Wijngaard va D. Grey academic advising va tutoring masalasiga xalqaro oliy ta'lim kontekstida yondashib, ushbu xizmatlarning talabalar muvaffaqiyati bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [6]. Mualliflarning yondashuvida tyutorlik va akademik maslahat talabaning ta'lim jarayonida to'g'ri qaror qabul qilishi, universitet imkoniyatlaridan samarali foydalanishi va o'z ta'lim faoliyati uchun mas'uliyatni zimmasiga olishida yordam beruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bu esa zamonaviy tyutor modelida nazoratdan ko'ra hamrohlik, maslahat, yo'naltirish va rivojlantirish funksiyalari ustun bo'lishi zarurligini anglatadi.

Tyutorlikning akademik natijalarga ta'sirini keng ko'lamli empirik material asosida baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud. C. Zhang, N. Sun, Y. Jiang, H. Liu va Q. Huang tomonidan 27 ta eksperimental va kvazieksperimental tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilda oliy ta'limdagi peer tutoring dasturlari talabalarning akademik ko'rsatkichlariga o'rtacha darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [7]. Tadqiqotda umumiy effekt miqdori g = 0,480 ni tashkil etgan. Ayniqsa, individuallashtirilgan tutoring shakllarida natijalarning yuqoriroq bo'lishi qayd etilgan. Mazkur xulosalar tyutorlik jarayonining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi uning pedagogik samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

So'nggi tadqiqotlarda personal academic tutor faoliyatining akademik yordam bilangina chegaralanmasligi, balki pastoral va kasbiy qo'llab-quvvatlashni ham birlashtirishi ta'kidlanmoqda. T. Richardson va A. Stepniak personal academic tutor modelini talabaning oliy ta'limdagi rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq holda o'rganib, tyutor talabani universitetda saqlab qolish, keyingi bosqichga muvaffaqiyatli o'tish, tegishlilik hissini rivojlantirish va kasbiy yo'nalishlarini aniqlashtirishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatgan [8]. Shu jihatdan, zamonaviy tyutorlikda pedagogik, pastoral va professional yordamning integratsiyalashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar tyutorlik faoliyatining bir nechta o'zaro bog'langan pedagogik yo'nalishlarini ajratish imkonini beradi: akademik qo'llab-quvvatlash, individual maslahat, ijtimoiy-psixologik moslashuvga ko'maklashish, motivatsiyani rivojlantirish, refleksiv faoliyatni rag'batlantirish, talabaning mustaqilligini oshirish, kasbiy yo'naltirish va individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish. Demak, tyutorlikni faqat tashkiliy-nazorat faoliyati sifatida baholash mazkur institutning pedagogik imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bilan birga, mavjud xalqaro tadqiqotlarda tyutorlik samaradorligi ko'pincha talabalar qoniqishi, universitetga mansublik hissi, akademik muvaffaqiyat, retention va individual qo'llab-quvvatlash indikatorlari orqali baholanadi. Talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining yaxlit mezonlari, ayniqsa, tyutorning pedagogik faoliyati bilan

ISSN 3060-5059 (Online)

ularning o‘zaro bog‘liqligi nisbatan kam kompleks tadqiq qilingan. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida tyutor faoliyatining pedagogik mazmunini talabalarning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi bilan integrativ tarzda o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim muassasasida tyutor faoliyatining pedagogik mazmuni va uning talabalar shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga ta’sirini aniqlash maqsadida pedagogik diagnostika asosidagi strukturaviy-funksional tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod tyutor faoliyatining tarkibiy qismlari, asosiy pedagogik funksiyalari, talabalar bilan ishlash shakllari hamda ularning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lish darajasini tizimli ravishda baholash imkonini berdi.

Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universitetida olib borildi va unda universitetda faoliyat yuritayotgan 21 nafar tyutorning pedagogik faoliyati tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida tyutorlarning talabalar bilan olib boradigan kundalik pedagogik, tarbiyaviy, maslahat va tashkiliy faoliyati belgilandi. Tadqiqot predmeti esa tyutor faoliyatining pedagogik funksiyalari, ularning mazmuni va talabalarning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oldi.

Pedagogik diagnostika asosidagi strukturaviy-funksional tahlil tyutor faoliyatini alohida funksional komponentlarga ajratish va har bir komponentning amaliy ifodalanish darajasini aniqlashga qaratildi. Shu asosda tyutor faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha baholandi: akademik qo‘llab-quvvatlash, individual maslahat berish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga ko‘maklashish, kasbiy yo‘naltirish, motivatsion qo‘llab-quvvatlash hamda monitoring va refleksiv faoliyat.

Tahlil jarayonida har bir tyutor faoliyati mazkur mezonlarning amaliy namoyon bo‘lish darajasi asosida o‘rganildi. Bunda tyutorning talabalar bilan individual va guruh shaklida ishlashi, muammoli vaziyatlarga pedagogik yondashuvi, talabaning ta’limiy va shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash darajasi, kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish shakllari hamda o‘z faoliyati natijalarini muntazam tahlil qilish holatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Pedagogik diagnostika jarayonida faoliyat ko‘rsatkichlari uch darajada baholandi: yuqori, o‘rta va past daraja. Yuqori daraja tyutor faoliyatining tizimli, maqsadli va individuallashtirilgan holda tashkil etilishi bilan tavsiflandi. O‘rta daraja ayrim pedagogik funksiyalarning yetarlicha amalga oshirilishi, biroq ularning muntazamligi va individual yondashuv darajasining barqaror emasligi bilan belgilandi. Past daraja esa tyutor faoliyatida asosan tashkiliy-nazorat funksiyalarining ustunligi va talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlandi.

Strukturaviy-funksional tahlilning keyingi bosqichida 21 nafar tyutor faoliyatidan olingan natijalar umumlashtirilib, har bir mezon bo‘yicha ustuvor va muammoli jihatlar aniqlandi. Bu yondashuv tyutor faoliyatining real pedagogik holatini aniqlash, uning samarali jihatlarini ajratish va takomillashtirish zarur bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilash imkonini berdi.

Mazkur metod tanlanishining asosiy sababi shundaki, u tyutor faoliyatini faqat tashkiliy vazifalar majmui sifatida emas, balki talabaning akademik, shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi murakkab pedagogik tizim sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois tadqiqot natijalari keyingi bosqichda tyutor faoliyatining qaysi pedagogik yo‘nalishlari yetarli darajada rivojlanganini va qaysi komponentlar qo‘shimcha metodik qo‘llab-quvvatlashni talab etishini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jizzax davlat pedagogika universitetida faoliyat olib borayotgan 21 nafar tyutorning pedagogik faoliyati pedagogik diagnostika asosidagi strukturaviy-funksional tahlil metodi yordamida o‘rganildi. Diagnostika jarayonida tyutor faoliyatining yettita asosiy komponenti: akademik qo‘llab-quvvatlash, individual maslahat berish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga ko‘maklashish, kasbiy yo‘naltirish, motivatsion qo‘llab-quvvatlash hamda monitoring va refleksiv faoliyat mezon sifatida belgilandi.

Har bir mezon bo‘yicha tyutorlarning faoliyati yuqori, o‘rta va past darajalarda baholandi. Yuqori daraja faoliyatning tizimli, maqsadli va talabaning individual ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilganligini; o‘rta daraja pedagogik faoliyatning mavjudligi, biroq uning muntazam va individuallashtirilgan xarakterga to‘liq ega emasligini; past daraja esa tegishli pedagogik funksiyaning epizodik yoki asosan tashkiliy shaklda amalga oshirilishini ifodaladi.

1-jadval. 21 nafar tyutor faoliyatining dastlabki diagnostika natijalari

№	Pedagogik mezonlar	Yuqori daraja, n (%)	O‘rta daraja, n (%)	Past daraja, n (%)
1	Akademik qo‘llab-quvvatlash	7 (33,3%)	9 (42,9%)	5 (23,8%)
2	Individual maslahat berish	6 (28,6%)	9 (42,9%)	6 (28,6%)
3	Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	8 (38,1%)	9 (42,9%)	4 (19,0%)
4	Ijtimoiy-psixologik moslashuvga ko‘maklashish	5 (23,8%)	10 (47,6%)	6 (28,6%)

ISSN 3060-5059 (Online)

№	Pedagogik mezonlar	Yuqori daraja, n (%)	O‘rta daraja, n (%)	Past daraja, n (%)
5	Kasbiy yo‘naltirish	6 (28,6%)	10 (47,6%)	5 (23,8%)
6	Motivatsion qo‘llab-quvvatlash	7 (33,3%)	9 (42,9%)	5 (23,8%)
7	Monitoring va refleksiv faoliyat	6 (28,6%)	9 (42,9%)	6 (28,6%)

Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, tyutorlar faoliyatida nisbatan yuqori ko‘rsatkich tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish mezonida qayd etildi. Mazkur mezon bo‘yicha 8 nafar, ya’ni 38,1% tyutor yuqori darajani namoyon etdi. Bu holat tyutorlar faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish, talabalar bilan guruh doirasida ishlash va tarbiyaviy faoliyatni muvofiqlashtirish tajribasi nisbatan yaxshi shakllanganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik moslashuvga ko‘maklashish mezoni bo‘yicha yuqori darajaga ega tyutorlar soni 5 nafarni, ya’ni 23,8% ni tashkil etdi. 6 nafar tyutorda esa ushbu faoliyat past darajada qayd etildi. Bu ko‘rsatkich talabalar bilan ishlashda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish, moslashuv muammolarini erta aniqlash va ularga pedagogik yordam ko‘rsatishga oid faoliyatni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi.

Individual maslahat berish, kasbiy yo‘naltirish hamda monitoring-refleksiv faoliyat yo‘nalishlarida ham yuqori darajaga ega respondentlar ulushi 28,6% atrofida bo‘ldi. Bu esa tyutor faoliyatida jamoaviy va tashkiliy ishlar yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, talabaga individual yondashish, uning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish va kelajakdagi kasbiy trayektoriyasini belgilashga ko‘maklashish yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Tyutorlar faoliyatining pedagogik mazmuniga e’tiborni kuchaytirish, talabalar bilan individual ishlash, ularning ta’limiy va shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash, pedagogik monitoring va refleksiyani faollashtirish natijasida yakuniy diagnostikada ijobiy dinamika kuzatildi.

2-jadval. 21 nafar tyutor faoliyatining yakuniy diagnostika natijalari

№	Pedagogik mezonlar	Yuqori daraja, n (%)	O‘rta daraja, n (%)	Past daraja, n (%)
1	Akademik qo‘llab-quvvatlash	11 (52,4%)	8 (38,1%)	2 (9,5%)
2	Individual maslahat berish	11 (52,4%)	8 (38,1%)	2 (9,5%)
3	Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	12 (57,1%)	7 (33,3%)	2 (9,5%)
4	Ijtimoiy-psixologik moslashuvga ko‘maklashish	10 (47,6%)	9 (42,9%)	2 (9,5%)
5	Kasbiy yo‘naltirish	9 (42,9%)	9 (42,9%)	3 (14,3%)
6	Motivatsion qo‘llab-quvvatlash	10 (47,6%)	9 (42,9%)	2 (9,5%)
7	Monitoring va refleksiv faoliyat	9 (42,9%)	9 (42,9%)	3 (14,3%)

Yakuniy diagnostika natijalarida barcha mezonlar bo‘yicha yuqori darajadagi tyutorlar sonining ortishi va past darajadagi respondentlar ulushining kamayishi kuzatildi. Jumladan, akademik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi tyutorlar soni 7 nafardan 11 nafarga, individual maslahat berishda 6 nafardan 11 nafarga, tarbiyaviy faoliyatda esa 8 nafardan 12 nafarga yetdi.

Ayniqsa, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi o‘zgarish e’tiborga molikdir. Ushbu mezonda dastlab yuqori darajadagi respondentlar 5 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, yakuniy diagnostikada ularning soni 10 nafarga yetdi. Past darajadagi tyutorlar soni esa 6 nafardan 2 nafargacha kamaydi. Bu natija tyutorning talaba bilan individual muloqoti, muammoli vaziyatlarni o‘z vaqtida aniqlashi va pedagogik yordam ko‘rsatishining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida mezonlar bo‘yicha o‘zgarishlar faqat yuqori, o‘rta va past darajadagi respondentlar soni orqali emas, balki har bir komponent bo‘yicha umumlashtirilgan integral diagnostik ko‘rsatkich dinamikasi asosida ham baholandi.

3-jadval. Tyutor faoliyatining pedagogik komponentlari bo‘yicha o‘sish dinamikasi

ISSN 3060-5059 (Online)

№	Pedagogik komponent	Integral koʻrsatkichdagi oʻsish
1	Akademik qoʻllab-quvvatlash	17,0%
2	Individual maslahat berish	21,0%
3	Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	19,1%
4	Ijtimoiy-psixologik moslashuvga koʻmaklashish	23,0%
5	Kasbiy yoʻnaltirish	14,6%
6	Motivatsion qoʻllab-quvvatlash	—
7	Monitoring va refleksiv faoliyat	—

Integral diagnostik koʻrsatkichlarning qiyosiy tahlili eng katta oʻsish ijtimoiy-psixologik moslashuvga koʻmaklashish komponentida kuzatilganini koʻrsatdi — 23%. Bu natija tyutor faoliyatining mazkur yoʻnalishini pedagogik jihatdan kuchaytirish talabalar bilan ishonchli muloqot oʻrnatish, ularning moslashuv jarayonidagi muammolarini oʻz vaqtida aniqlash va individual yordam koʻrsatishda muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi yuqori natija individual maslahat berish komponentida kuzatilib, oʻsish 21% ni tashkil etdi. Tyutor-talaba munosabatlarida individual yondashuvning kuchayishi talabaning nafaqat mavjud muammolarini hal etishga, balki mustaqil qaror qabul qilish, oʻz faoliyatini rejalashtirish va shaxsiy rivojlanish maqsadlarini belgilash koʻnikmalariga ham ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish komponentida 19,1% oʻsish qayd etildi. Dastlab ham ushbu yoʻnalishda nisbatan yuqori natija mavjud boʻlganiga qaramay, pedagogik faoliyatni talabalar ehtiyojlari bilan uygʻunlashtirish va tarbiyaviy tadbirlarni faqat ommaviy shaklda emas, balki talabaning shaxsiy rivojlanishiga yoʻnaltirish natijasida qoʻshimcha ijobiy dinamika yuzaga keldi.

Akademik qoʻllab-quvvatlash komponentida integral koʻrsatkich 17% ga oshdi. Bu tyutorlar tomonidan talabaning akademik qiyinchiliklarini aniqlash, mustaqil taʼlim faoliyatini rejalashtirishga koʻmaklashish, fanlarni oʻzlashtirish boʻyicha tegishli tavsiyalar berish va taʼlim jarayonidagi faolligini ragʻbatlantirish samaradorligi ortganini koʻrsatadi.

Nisbatan pastroq, biroq ijobiy oʻzgarish kasbiy yoʻnaltirish mezonida kuzatilib, oʻsish 14,6% ni tashkil etdi. Mazkur holat tyutorlik faoliyatida talabani kelajak kasbiy faoliyatiga yoʻnaltirish, kasbiy maqsadlarni belgilash va individual professional rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish masalalarini yanada kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi.

Natijalarni umumlashtirish shuni koʻrsatdiki, tyutor faoliyatida faqat tashkiliy-nazorat yondashuvidan pedagogik hamrohlik modeliga oʻtish samaradorlikni oshiruvchi muhim omillardan biridir. Talabalarni individual maslahat bilan taʼminlash, ularning psixologik va ijtimoiy moslashuviga koʻmaklashish, taʼlimdagi qiyinchiliklarni muntazam kuzatish va mustaqil rivojlanishga yoʻnaltirish tyutorlikning pedagogik mazmunini belgilovchi asosiy funksiyalar sifatida namoyon boʻldi.

Shuningdek, natijalar tyutor faoliyati talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatdi. Tyutorning individual yondashuvi orqali talabalarda mustaqillik, masʼuliyat, oʻz faoliyatini rejalashtirish, kommunikativ faollik, refleksiya va kasbiy maqsadni anglash kabi sifatlarning rivojlanishi uchun pedagogik sharoit yaratiladi.

Shunday qilib, 21 nafar tyutor faoliyati boʻyicha amalga oshirilgan strukturaviy-funksional tahlil natijalari tyutorlikni oliy taʼlimdagi yordamchi tashkiliy faoliyat sifatida emas, balki talabaning akademik, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini taʼminlovchi kompleks pedagogik mexanizm sifatida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari oliy taʼlim muassasalarida tyutor faoliyatining pedagogik mazmuni talabalarning akademik, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash bilan uzviy bogʻliq ekanligini koʻrsatdi. Tyutor faoliyatini faqat tashkiliy yoki nazorat funksiyalari doirasida talqin qilish uning real pedagogik imkoniyatlarini toʻliq ochib bermaydi. Aksincha, zamonaviy tyutor talabaning individual ehtiyojlarini aniqlovchi, unga maslahat beruvchi, motivatsion qoʻllab-quvvatlovchi, kasbiy yoʻnaltiruvchi va rivojlanish dinamikasini kuzatuvchi pedagogik hamroh sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Jizzax davlat pedagogika universitetida faoliyat olib borayotgan 21 nafar tyutor faoliyatining pedagogik diagnostika asosidagi strukturaviy-funksional tahlili tyutorlik faoliyatining yettita asosiy komponentini ajratish imkonini berdi: akademik qoʻllab-quvvatlash, individual maslahat berish, tarbiyaviy faoliyat, ijtimoiy-psixologik moslashuvga koʻmaklashish, kasbiy yoʻnaltirish, motivatsion qoʻllab-quvvatlash hamda monitoring va refleksiv faoliyat. Ushbu komponentlar tyutor faoliyatining pedagogik mazmunini belgilovchi oʻzaro bogʻliq funksional tizim sifatida namoyon boʻldi.

Tadqiqot jarayonida qayd etilgan ijobiy dinamika tyutorlik faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadli tashkil etish samarali natija berishini koʻrsatdi. Jumladan, ijtimoiy-psixologik moslashuvga koʻmaklashish komponentida 23%,

individual maslahat berishda 21%, tarbiyaviy faoliyatda 19,1%, akademik qo'llab-quvvatlashda 17%, kasbiy yo'naltirishda esa 14,6% o'sish kuzatildi. Mazkur natijalar tyutorning talaba bilan individual ishlashi, uning ehtiyoj va muammolarini o'z vaqtida aniqlashi hamda rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik yordam ko'rsatishi muhimligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tyutorlik faoliyatining eng samarali yo'nalishlari talaba bilan bevosita muloqot, individual maslahat, moslashuvga ko'maklashish va akademik qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Shu bilan birga, kasbiy yo'naltirish, monitoring va refleksiv faoliyatni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Ayniqsa, talabalar uchun individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish, kasbiy maqsadlarni aniqlashtirish va tyutor faoliyati natijalarini muntazam baholash mexanizmlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Shu asosda oliy ta'lim muassasalarida tyutorlar faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning pedagogik kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, individual maslahat texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, talabalar ehtiyojlarini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda monitoring va refleksiyaga asoslangan ish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv tyutorlik institutining mazmunini boyitib, uni talabaning shaxsiy va kasbiy kamolotini qo'llab-quvvatlovchi samarali pedagogik mexanizmga aylantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tyutorlik faoliyatining pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi talabalarda mustaqillik, mas'uliyat, ijtimoiy faollik, kasbiy motivatsiya, refleksiv tafakkur va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Shu sababli tyutor faoliyatini oliy ta'lim tizimining yordamchi bo'g'ini sifatida emas, balki talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi strategik pedagogik institut sifatida baholash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yale A. T. The Personal Tutor–Student Relationship: Student Expectations and Experiences of Personal Tutoring in Higher Education // *Journal of Further and Higher Education.* – 2019. – Vol. 43, No. 4. – P. 533–544. – DOI: 10.1080/0309877X.2017.1377164
2. Yale A. T. Quality Matters: An In-Depth Exploration of the Student–Personal Tutor Relationship in Higher Education from the Student Perspective // *Journal of Further and Higher Education.* – 2020. – Vol. 44, No. 6. – P. 739–752. – DOI: 10.1080/0309877X.2019.1596235
3. Wakelin E. Personal Tutoring in Higher Education: An Action Research Project on How to Improve Personal Tutoring for Both Staff and Students // *Educational Action Research.* – 2023. – Vol. 31, No. 5. – P. 998–1013. – DOI: 10.1080/09650792.2021.2013912
4. Seraj S., Leggett R. The Challenges of Personal Tutoring in Higher Education: Applying a Coaching Approach at a UK Higher Education Institution // *International Journal of Evidence Based Coaching and Mentoring.* – 2023. – Vol. 21, No. 1. – P. 85–98. – DOI: 10.24384/gyz9-fk22
5. Tippetts M. M., Brandley A. T., Metro J., King M., Ogren C., Zick C. D. Promoting Persistence: The Role of Academic Advisors // *Journal of College Student Retention: Research, Theory & Practice.* – 2022. – Vol. 24, No. 2. – P. 526–547. – DOI: 10.1177/1521025120924804
6. McIntosh E. A., Thomas L., Troxel W. G., van den Wijngaard O., Grey D. Editorial: Academic Advising and Tutoring for Student Success in Higher Education: International Approaches // *Frontiers in Education.* – 2021. – Vol. 6. – Article 631265. – DOI: 10.3389/feduc.2021.631265
7. Zhang C., Sun N., Jiang Y., Liu H., Huang Q. The Impact of Peer Tutoring Programs on Students' Academic Performance in Higher Education: A Meta-Analysis // *The Asia-Pacific Education Researcher.* – 2025. – Vol. 34, No. 4. – P. 1495–1506. – DOI: 10.1007/s40299-024-00960-0
8. Richardson T., Stepniak A. Proactive Academic Tutoring? Uniting the Pastoral and the Professional: A Critical Approach to the PAT Role in the Contemporary HEI Landscape // *International Journal of Educational Research Open.* – 2025. – Vol. 9. – Article 100493. – DOI: 10.1016/j.ijedro.2025.100493